

## O‘SMIRLARDA HUQUQBUZARLIK HAMDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHNING SOG‘LOM PSIXOLOGIK USULLARI

*Bo‘riyev Kamoliddin Turg‘unovich  
Farg‘ona viloyati Buvayda tumani  
29-maktab amaliyotchi psixolog*

**Annotatsiya:** O‘smirlar boshqa kishilarni baholashda bazan shoshma-shosharlik qilib, qat’iy fikr yuritishga yo‘l qo‘yib qo‘yadilar. Masalan: ular ko‘pincha kishilarni faqat ayrim xatti-harakatlari va ayrim sifatlariga qarab baholaydilar. Bu bahoni esa butun bir shaxsga nisbatan tadbiq qiladilar. Natijada kishining qadr-qimmati uning ijobjiy va salbiy sifatlari haqida ko‘pincha noto‘g‘ri xulosa chiqaradilar.

**Kalit so‘zlar:** o‘smir, jinoyatchilik, o‘z-o‘zini anglash, ehtiros, xarakter, rivojlanish, korreksiya, profilaktika, hissiyot, depressiya.

### KIRISH

Agar oilada bolaning ehtiyojlari va tashvishlari bilan hech kim qiziqmasa, unga beparvo bo‘lib, fikri e’tiborga olinmasa va unga nisbatan zo‘ravonlik ishlatilsa, u o‘z shaxsini buzg‘unchilik va jinoyat sodir etish orqali ko‘rsatishga harakat qiladi. Xullas, bolaga ruhiy va tan jarohati yetkazilsa, u boshqalarga nisbatan shunday harakat qilishdan qo‘rqlay qo‘yadi. Ba’zan bir sinfdan oliygohlarga juda kamchilik o‘qishga kiradi. Qolganlarida esa jamiyatga kerak ekanliklari to‘g‘risida shubha paydo bo‘lishi mumkin. Keyin ular mardikorlik yoki shunga o‘xhash mayda ishlarga o‘zini uradi. Buning oldini olish uchun ota-onas farzandini ilm olishga rag‘batlantirishi, o‘qishi uchun zarur sharoitni yaratib berishi kerak. Shuningdek, ota-onas bilan ishslash, ularga bola parvarishi va tarbiyasini o‘rgatish juda muhim. Chunki o‘smirlar jinoyatchiligi ko‘pincha uydagi muhit bilan bog‘liq bo‘ladi», – deydi ruhshunos.

Insonda o‘z xatti-harakati oqibatini anglash 25 yoshdan keyin to‘liq shakllanadi. Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo‘yicha dasturiy prinsiplarga ko‘ra, o‘smir bolalar tarbiyasi va himoyasi bilan nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki oila, ijtimoiy institutlar, maktab, mahalla va yoshlar tashkilotlari ham shug‘ullanishi kerak. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bolada o‘z xatti-harakati oqibatini bilish 25 yoshdan keyin to‘liq rivojlanadi. Jinoyat sodir etgan o‘smirlarning 80 foizida ular ulg‘aygach ijobjiy xarakter shakllanib, jinoyat yo‘lini tark etishgan. Bosh prokuratura va uning huzuridagi akademiya YUNISEF ko‘magida mahalliy hokimliklar bilan birga jinoyat sodir etgan bolalar bilan alohida yondashuv asosida ishslash loyihasini amalga oshirmoqda. Unda turli tashkilotlar vakillaridan iborat 10 nafar professionallar jamoasi faoliyat olib bormoqda. Ular

qatoriga Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya kotibi, koordinator, ijtimoiy xodimlar, mutaxassislar, o'qituvchilar, fasilitatorlar, shuningdek, Yoshlar ittifoqi va mahalla fuqarolar yig'inlari vakillari kiritilgan.

Loyiha doirasida uncha og'ir bo'lмаган jinoyatlar (o'g'rilik, bezorilik, tan jarohati yetkazish, talonchilik) sodir etgan 14–18 yoshli bolalar hamda ma'muriy huquqbazarliklar (yengil tan jarohati, mayda bezorilik, mayda o'g'rilik) sodir etgan 16–18 yoshli bolalar komissiya tasarrufiga yuboriladi. So'ngra jamoa a'zolari bolalar va ularning oilalari ehtiyojlarini aniqlaydilar, o'smirlarning huquqbazarlik xulqini o'zgartirish uchun individual chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, uni amalga oshiradilar.

Qiziqishlarning bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'siri mavjud ekanligini o'smirlik sublimatsiyasining noto'g'ri yo'naltirilganligi bilan izohlaymiz. Qiziqish insonni harakatga undaydi. Qiziqishlari turli-tuman o'smir o'z tengdoshlari bilan jamiyatda o'rnatilgan axloqiy-huquqiy talablarga qarama-qarshi bo'lib, salbiy holatlarga beriluvchanlikni keltirib chiqaradi. Dastlab qiziqish xarakteridagi salbiy xatti-harakatlar keyinchalik uning shaxsiyatiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Qiziqishlar to'g'ri tarbiyalansa, ular o'smirlarning qobiliyatları va mayllarining rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'quvchining bilimlari chuqurlashib boradi, u fanlarni o'rgana boshlaydi, unda ayrim o'quv predmetlariga, san'atga, sportning qaysidir turiga zo'r qiziqish ortadi. O'smir juda ko'p narsalarga; sport, turizm, kino-teatr, badiiy havaskorlik kabi turli yo'nalishlarga qiziqadi.

Ko'p hollarda bu qiziqishlar ehtiros xarakteriga ega bo'ladi. Kun tartibi to'g'ri tashkil qilinsa, vaqt to'gri taqqoslansa, o'smir yaxshi o'qish, maktabdan tashqari xilmashishlar bilan shug'ullanishi va o'zin-kulgu uchun yetarli vaqt topa olishi mumkin. Ilk yigitlik bo'sag'asida turgan o'smirlar uchun kishilarning histuyg'ulari, kechinmalariga va ayniqsa, o'zining ichki dunyosiga, o'zinio'zi analiz qilishga moyillik xarakterlidir. O'z-o'zini anglashning - bu o'zini o'zi tanish, sifat va kamchiliklarini, o'z qobiliyat va imkoniyatlarini bilib olish, o'z xatti-harakatlari haqida hisob berish ehtiyojidir. O'z-o'zini anglashningeng yuqori darajasi o'zining hayotdagagi o'rnini aniq tasavvur qilish, o'zini shaxs sifatida anglab olishdir.

Dastlabki paytlarda uning o'zi haqidagi fikrlari ko'p jihatdan boshqa kishilarning u haqidagi fikrlaridan iborat bo'ladi. "O'z xarakter hislatlaring haqida sen qayerdan bilasan" - degan savolga o'smirlar to'g'ridan-to'g'ri otaonalari, o'qituvchilari, o'rtoqlaridan bilib olganlarini aytadilar, ammo keyinchalik buni o'zlari sezal boshlaydilar. Lekin har qalay, o'zlaridan ko'ra boshqa kishilarni

oldinroq baholay boshlaydilar. Ular o‘z fikrlarini g‘olib chiqishini xohlashadilar. O‘smirlar boshqa kishilarni baholashda bazan shoshma-shosharlik qilib, qat’iy fikr yuritishga yo‘l qo‘yib qo‘yadilar. Masalan: ular ko‘pincha kishilarni faqat ayrim xatti-harakatlari va ayrim sifatlariga qarab baholaydilar. Bu bahoni esa butun bir shaxsga nisbatan tadbiq qiladilar. Natijada kishining qadr-qimmati uning ijobjiy va salbiy sifatlari haqida ko‘pincha noto‘g‘ri xulosa chiqaradilar. Ularning o‘z-o‘ziga baho berishi ham har doim xolis bo‘lavermaydi. Masalan: ular o‘rtoqlaring qo‘polligi gapiradilar-u, ammo buni o‘zlarida sezmaydilar. Hamma o‘smirlarham o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘z xatolarini vijdanan va ro‘yi-rost bo‘yniga olishni uddasidan chiqavermaydi. O‘smir atrofdagilarning unga bergen bahosiga nisbatan sezgir bo‘ladi.

Uning kayfiyatidagi ranjishsababi ana shunda. Tasodifiy muvaffaqiyat yoki kattalarning maqtab qo‘yishi, o‘smirlarni o‘ziga ortiqcha baho berishiga, o‘ziga haddan tashqari ishonuvchanlikka, maqtanchoqlikka olib keladi. Hatto vaqtincha, tasodifiy muvaffaqqiyatsizlik o‘smirda o‘z kuchiga ishonmaslik ishonchszlik uyg‘otish, qo‘rroqlik, jur’atsizlik va uyatchanlik hissini oshirib yuborish mumkin. Shu xususiyatlar natijasida unda kelib chiqadigan qiziqishlar salbiy xulqiy og’ishishlarga, turli jinoiy xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ota-onasi yoki o‘qituvchi o‘smirlar bilan bo‘ladigan munosabatda alohida e’tiborli va nazokatli bo‘lishi zarur. O‘smirlilik yoshida zaif, mustaqil emas, kichkina deb nom chiqarishninig qo‘rqish xavfi kuchayadi. U o‘zining mustaqilligini ko‘rsatish uchun, o‘zining nohaqligini tushunib tursa ham, ko‘pincha qaysarlik va qo‘pollik qilaveradi. Muomalada dag‘allik, talabchanlikva humatsizlik o‘quvchiga yosh bolalarga bo‘lganday muomalada bo‘lish ular yaxshi tushunaman deb hisoblagan misollar bo‘yicha o‘zlarining mustaqil fikirlarini aytish huquqini mensimaslik ularning yuqori natijalarga erishishdagi kuch va imkoniyatlariga shubhalanish kabi hodisalar, odatda o‘smirda norozilik yoki aniq ifodalangan boshqa bir salbiy harakatlarni hosil qiladi.

## XULOSA

O‘smirlar o‘z-o‘zini tarbiyalashga zarurat sezadilar buni ulardan onglilikning o‘sishi, kattalarga o‘xshashga intilishlari bilan tushuntirish mumkin. Ular ma’lum darajada o‘zini ishontirish, o‘ziga buyruq berish, o‘zini nazorat qilish kabi o‘z-o‘zini tarbiyalash vositalariga egadirlar. Ular ayniqsa, jismoniy va iroda sifatlarini o‘stirishga harakat qiladilar. O‘smirlilikda bolalarda burch va javobgarlik tuyg‘ulari yetarli darajada o‘sgan bo‘ladi. Bolalar o‘zları ongli ravishda tanlagan ma’lum maqsadga erishish uchun ish-harakatlar qilishga qobil bo‘lib qoladilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

- Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности //Образование и воспитание. –2020. –№. 2. –С. 66-67

2. МаджидовДж Б, Маджидова В, ШарофиддиновА. Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. страницы: 22-24 источник: актуальные вопросы современной психологии материалы международной научной конференции. 2017
3. Sharaffitdinov, A., & Yusupov, U. (2022). The opportunities of educating morality for children through samples of folklore. EurasianScientificHerald, 5, 65-68.
4. Sharafitdinov Abdulla, QurbonboyevMirazizZulxaydarog'li Psychological Characteristics of DecisionMaking in Management Global Scientific Review A
5. Peer Reviewed, Open Access, International Journal [www.scienticreview.com](http://www.scienticreview.com) Volume 1, February 2022 ISSN (E): Pending